

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA TIL ORQALI MILLIY RUHNING IFODALANISHI

Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi,
*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili va
adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi*

Shoir olamining mohiyati she'r sanaladi. U ijodkorning muayyan kayfiyati, ichki ruhiy kechinmasidan dunyoga keladi. SHoir kechinmalarining qog'ozga qay shaklda ko'chishi esa uning o'ziga xos fikrlash tarzidan, tafakkur yo'sinidan dalolat beradi va bu holat shoir she'rlarida o'zini turli xil ko'rinishlarda namoyon qiladi. Hususan, shoir Muhammad Yusuf ijodida milliy ruhning til vositalari yordamida xalqona yo'lda namoyon bo'lishi shoirning fikrlashi, turmush tarzi, dunyoqarashi bilan uzviy aloqadorligi seziladi. Masalan, shoirning "Bobokalonim" she'ridan olingan quyidagi parchaga diqqat qilaylik:

Er aylanar,
Er aylanar,
Er aylanib tinmaydi.
YAktagingning englaridan
Ter yugurib tinmaydi,
Qo'ling tegmay bu dunyoda
Bitta giyoh unmaydi,
Tin bilmagan jonim mening,
Bobodehqonim mening (S., 204).

Bu parchada er aylanar birikmasining takrori bilan kuchli badiiy tasvir hosil qilingan, ya'ni er aylanishi hech qachon to'xtamaydigan uzluksiz jarayon: er yugurib tinmaydi. Shu kabi dehqoning mehnat jarayoni ham yil-o'n ikki oy uzluksiz davom etadi. Bunday uzluksizlik dehqondan astoydil, ter to'kib ishlashni, chinakam mehnat qilishni talab qiladi. Bobodehqonning ishlab charchamagan badanidan ter yugurib tinmaydi. Er aylanishi qanchalar tabiiy va hayotiy zarur hodisa bo'lsa, dehqon terining quyilib tinmasligi ham shunchalik muhim ahamiyatga molik jarayondir. Negaki, er o'z o'qi atrofida, bir soniya bo'lsa-da, aylanishdan to'xtasa, muvozanati, ilohiy intizomi buziladi. SHu sababli erning to'xtab tin olishga haqqi yo'q, u yugurib charchamaslikka mahkum. Bobo dehqon ham bir daqiqa bo'lsa-da, mehnatdan to'xtay olmaydi. Chunki uning zimmasida odamzotni zarur mahsulotlar bilan ta'minlash, yashash uchun zarur shoir yaratishdek ulkan mas'uliyat bor. Hayotning yozilmagan qonuni tusini olgan bu zarurat ma'nosini shoir quyidagi to'rt misraga juda ixcham, ammo juda teran joylay olgan:

Oftob chiqar,
Oftob botar,
CHO‘g‘lar sohib tanangga,
Bir kungina bormay qo‘ysang
Nima qilar dalangga (S., 204).

Shoir Muhammad Yusuf she‘rlarining asosiy qismi barmoq vaznida bitilgan. Barmoq vazni o‘zbek adabiyotida juda qadimdan qo‘llanib kelayotgan an‘naviy she‘riy o‘lchov sanaladi. Xalq og‘zaki ijodining barcha namunalari ham, qadimgi davrda yaratilgan asarlarning aksariyati ham barmoq vaznida bo‘lgan. Shuningdek, Muhammad Yusuf qo‘llaydigan she‘riy til ham folklor namunalariga juda o‘xshaydi. Ana shu xususiyat shoir ijodining juda tez xalq orasida ommalashuvini ta‘minlagan. Uning she‘riyatida xalq qo‘llaydigan termalar, hikmatlar, lo‘nda, mazmundor so‘zlardan unumli va o‘rinli foydalanilgan:

Mayli-da, kimgadir
Yoqsa,
Yoqmasa,
Ularga qo‘shilib
Yig‘lasharmidik.
Biz baxtli bo‘lamiz
Xudo xohlasa,
Uchrasharmidik... (S., 32).

She‘rning mayli-da deb boshlanishi o‘quvchini mutolaaning boshidanoq chuqur samimiyatga, yaqinlikka undaydi. Bir qarashda bu she‘rda shoirning fikrlash tarzi oddiy, jo‘nday tuyuladi. Ammo bu – she‘rdan olingan ilk taassurot, xolos. Bu she‘rda shoir inson o‘z fikri bilan o‘z irodasiga ko‘ra yashashi zarur, degan falsafani oddiy ifodalab qo‘ya qoladi. Ana shu oddiylik bag‘rida shoir Muhammad Yusuf dahosi namoyon bo‘ladi. Negaki, kichik bir satrga ulkan ma‘noni joylay bilish, joylaganda ham uni hammaga anglashilarli tarzda ifodalay olish barchaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Buni faqat ona tilini teran bilgan, uning o‘zbekona ruhiyatini aniq ifodalashga yo‘naltira olgan ijodkorgina bajara oladi. Muhammad Yusuf XX asr o‘zbek she‘riyatining ana shunday vakillaridan biri edi. U yozadi: “Keng bir o‘tloq bo‘lsa. Atrofing ko‘m-ko‘k maysa. Osmon tip-tiniq. Maysaga yastanib yotsang-u... o‘lib qolsang!”. Bu parchada qanchalar sodda va ulug‘vor manzarayu, shoirlik qismatining qanchalar aniq chizgisi berilgan. Buni oniy kayfiyatning badiiy til vositalari yordamidagi mangu go‘zal ifodasi deyish mumkin.

Shoir asarlarining har bir satriga turkiy urf-odatlar, oddiy xalqning o‘ziga xos tafakkur tarzi, ruhi singib ketgan. Bu shoir Muhammad Yusufning o‘zbek tili boyligi,

ifoda imkoniyatlari, ma’no jihatining serqatlamliligini naqadar teran anglanganligidan daolat beradi:

Qiyosi yo‘q aslo, mehri bir daryo,
O‘xshasa o‘ziga o‘xshaydi o‘zbek.
Bolalariga-ku bildirmas, ammo
Dunyoda bolam deb yashaydi o‘zbek.
O‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa uning-chun.
Qizim parilardan chehrasi gulgun,
Yuzlari lolam deb yashaydi o‘zbek (S., 173).

Bu o‘rinda shoir o‘zbek xalqining til boyligini yaqqol namoyon eta olgan. Darhaqiqat, Muhammad Yusuf og‘zaki ijod namunalarini g‘unt bilan o‘rgangan, jonli til vositalaridan o‘rinli foydalangan, unga xos soddalik va ravonlik, ixcham va teran fikrlarni ifodalovchi tasviriy vosita hamda badiiy usullarni ijodiga keng tatbiq eta olgan shoirlarimizdan biri edi:

Oqshomlari qovunday,
Yumalaydi oy erda.
Menga ayting quyoshning
Ostonasi qaerda?
Tiling bormi, bo‘lsa bir
Hayqirib ber, Oymomo.
SHu ko‘chada bir qiz bor,
CHaqirib ber Oymomo!... (S., 68).

Xalq qo‘shiqlariga o‘xshash bunday tashbehtar shunchalik o‘rinli tanlangan, asar kayfiyatiga shu qadar uyg‘un bo‘lib tushganki, bu holatni o‘zga so‘zlar bilan ifodalab bo‘lmaydi. Keltirilgan matnga biror boshqa so‘z aralashsa, she‘r bunchalik tabiiy, uyg‘un va suyumli chiqmas edi. Zero, shoir Muhammad Yusuf she‘riyatni o‘z tafakkur tarziga ko‘ra, tabiiy quyilib kelayotgan so‘z va shaklda bitgan. Umuman, milliy ruh Muhammad Yusuf she‘riyatida, xalq og‘zaki ijodidagi singari tasvir hayotiyiligi, kundalik va umumbashariy falsafa uyg‘unligi, sheva so‘zlaridan mohirona foydalanishida yorqin namoyon bo‘ladi:

Tanish terak. Ariq yoqasi.
Bo‘tana suv, shirin loyqa suv.
Tor ko‘chada otlar taqasi...
Qancha bo‘ldi ko‘rmaganimga...
Yog‘och eshik ochilar sekin...
Toshmehrman men juda, lekin

Hozir yig‘lavorishim mumkin –
Qancha bo‘ldi ko‘rmaganimga... (S., 142).

Har bir o‘zbek qaerda yashamasin, istiqomat qiladigan joyi qanchalar qulay sharoitda bo‘lmasin, hamisha tug‘ilib o‘sgan makoniga intilib yashaydi. O‘zbeklarda kindik qoni to‘kilgan ona tuproqqa mehr o‘zgarmas, shu qadar turg‘un vaumrboqiydir. Bu holatning she‘rdagi tasviri ham jimjimador, kitobiy so‘zlar bilan emas, balki oddiy, teran, xalqona so‘zlar va birikmalar (ariq yoqasi, bo‘tana suv, loyqa suv, otlar taqasi, yog‘och eshik, toshmehr kabilar) vositasida amalga oshirilgan. Shoir oddiy xalq falsafasini juda yaxshi idrok etadi, uni chuqur, ich-ichidan his etib yashaydi. Uning har bir tashbehi, qo‘llagan so‘zi, qalamga olgan mavzusi bevosita xalq hayoti, tafakkuri, muammolari, quvonchu tashvishlaridan oziqlangan. Ana shuning uchun shoir Muhammad Yusuf she‘rlari xalq qalbilan mangu o‘rin olgan bo‘lib, uning ruhi kabi umri boqiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aynazarovna, A. B. (2021). Model of developing spiritual and moral competence of learners in the context of learning the English language. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1320-1325.
2. Arzieva, B. (2019). DEVELOPING PUPILS’SPIRITUAL FEATURES IN THE PROCESS OF LEARNING ENGLISH. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(10).
3. Джумабаева, Г. Б. (2023). ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ СЕМЬИ И ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРНЫХ И ДУХОВНЫХ КАЧЕСТВ ДЕТЕЙ. *QUALITY OF TEACHER EDUCATION UNDER MODERN CHALLENGES*, 1(1), 171-177.
4. Ергалиева, Ж. А., & Джумабаева, Г. Б. (2020). Преемственность в воспитании начальных экономических представлений у детей дошкольного возраста. *Молодой ученый*, (26), 289-290.
5. Amangeldievna, B. A., Kaniyazovna, G. K., Aitgalievna, Y. Z., & Berdiba, G. D. (2020). *Preschool Education And Modern Approach Towards It. The Analysis Of Educational Systems In Different Countries.*
6. Buranova, B. (2023). The Modulation and Generalization Method in the Process of Translation from Related Languages. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 10(6), 368-372.
7. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). “BOBURNOMA”–TARIXIY MANBA SIFATIDA. *Академические исследования в современной науке*, 2(4), 24-27.

8. Allambergenov, H. K., & Shamsiyev, D. I. (2024). Image Of Jabroil Alayhissalam In Navoyi's Me'rojnomas. SPAST Reports, 1(1).
9. Allambergenov, H. (2023). Innovative ways to teach the life and work of Rashod Nuri Guntekin in literary education. The Peerian Journal, 18, 25-29.
10. Kamolovich, A. H. (2018). Some Scientific Observations About Unnatural Symbols in the Folklore. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 7(6), 73-79.
11. Muqaddas, R. (2020). SHE'RIYATDA DIALOG YARATISHDA BADIY MAHORAT VA IJODIY INDIVIDUALLIK. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 1(1), 136-148.
12. Davlatova, M. H. (2021). Semantic implementation of resultative structures. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6, 291-294.
13. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. ILMIY XABARNOMA. NAUCHNYY VESTNIK Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура,(1), 86-89.
14. Davlatova, M. (2023). Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 10027). EDP Sciences.
15. Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 52-58.
16. Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.
17. Ширинова, Н. Д., & Давлатова, М. Х. МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ СПОСОБ РАЗГРАНИЧЕНИЯ ЗНАЧЕНИЙ ПРЕДМЕТНОСТИ И КАЧЕСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ЯЗЫКА. Muassis: Buxoro davlat universiteti TAHRIRIYAT: Muharrirlar: MQ Abuzalova MA Bokareva NN Voxidova, 40.
18. Давлатова, М. (2023). Typology of expressive emotional relations in linguistics. Современные тенденции при обучении иностранному языку в XXI веке, 1(1), 172-178.
19. Hasanovna, D. M. (2021). Semantic Implementation of resultative structures. novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.
20. Hasanovna, D. M. (2023). Occurrence of English Verb Predicates in the Functional-Semantic Field. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 518-524.

21. Khasanovna, D. M. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF PREDICATIVE CONSTRUCTIONS (In the example of the English language). Academia Repository, 4(10), 225-232.
22. Давлатова, М. Х. (2022). NUTQ TUZILMALARI MAZMUNIDAGI SEMANTIKA VA PRAGMATIKANING MUNOSABATI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(5).
23. Davlatova, M. X. (2015). The role of Songs in learning English. Journal. MolodoyUchyonniy, 10, 90.
24. Давлатова, М. Х. (2013). Хорошее поведение-важный способ формирования личности. Вестник Таджикского национального университета, (3-6), 237-241.
25. Давлатова, М. (2020). FE'LLARNING ASPEKTIK VA LEKSIK-SEMANTIKA TASNIFI. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(1).
26. Hasanovna, D. M. (2021). Different aspects of resultative structures according to their linguistic essence. Academicia Globe: Inderscience Research, 2 (05), 475–479. VOLUME03 ISSUE06 PAGES, 39, 47.
27. Muhayyo, D. (2017). THE ROTOR CONSTRUCTION OF COTTON RAW IN APPEARING VERTICAL BOUNDARY. Интернаука, (9-2), 76-78.